O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

остается низкой, особенно в сельских районах. Это подчеркивает необходимость усиленного внимания к развитию цифровых навыков в образовательных учреждениях, чтобы обеспечить равный доступ ко всем формам обучения в условиях перехода к онлайн-форматам.

В заключение, высшие учебные заведения стоят перед важной задачей адаптации своих учебных программ к постоянно меняющимся технологическим требованиям современного мира. Они несут ответственность за формирование у студентов не только технических навыков, таких как программирование и кибербезопасность, но и развитие критического мышления, умения анализировать и оценивать информацию в условиях изобилия данных. Взаимодействие между преподавателями и студентами, внедрение коллаборативных проектов и активное использование цифровых платформ значительно обогащают образовательный процесс и способствуют формированию у студентов компетенций, необходимых для успешной профессиональной деятельности в цифровом обществе. Таким образом, учебные заведения играют ключевую роль в подготовке будущего поколения к эффективному и безопасному участию в глобальной цифровой экономике, что особенно актуально в условиях усиления цифровой диверсификации и углубления глобальных интернет-подключений.

Список литературы:

1. Bates, A. W. (2015). "Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning for a Digital Age."
2. Selwyn, N. (2014). "Digital Technology and the Contemporary University: Degrees of digitization."
3. Siemens, G., & Long, P. (2011). "Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education."
4. Beetham, H., & Sharpe, R. (Eds.). (2013). "Rethinking Pedagogy for a Digital Age: Designing for 21st Century Learning."
5. Laurillard, D. (2012). "Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology."
6. https://www.un.org/sites/un2.un.org/files/2020/09/policy_brief_-_education_during_covid-19_and_beyond_russian.pdf
7. https://www.un.org/sites/un2.un.org/files/our-common-agenda-summit-of-the-future-what-would-it-deliver.pdf
8. https://xs.uz/uzkr/post/prezident-it-mutakhassislar-bilan-muloqot-qildi
9. https://lex.uz/docs/6252503//

IJTIMOIY TARMOQLAR VA ULARNING SHAXSIY HAYOTGA TA’SIRI

Qaxramonov Elbek Quvondiq o‘g‘li
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
eljon.mail@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar, turli xil media saytlar va mobil ilovalarning foydalanuvchilari internet va saytlardagi o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlarini o‘g‘irlashga urinayotgan jinoyatchilar tomonidan turli hujumlarga duchor bo‘lishayotganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi xatarlar, ijtimoiy media tarmoqlarida foydalanuvchilarning shaxsiy hayotiga va shaxsiy ma’lumotlariga qanday tahdid qilinayotgani, ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlar tasnifi hamda onlayn ijtimoiy tarmoqlarda maxfiy ma’lumotlarning sizib chiqish sabablari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoq, ijtimoiy media, ijtimoiy platforma, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi, akkount, shaxsiy ma’lumot, tahdid, firibgar, xaker, veb-sahifa.


Ijtimoiy tarmoqlar paydo bo‘lib, dunyo onlayn va oflayn turlarga bo‘lindi. Bu orqali insonlar veb olam orqali muloqotda bo‘lishni afzal ko‘ra boshladilar. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi 1954 yili sotsiolog Jeyms Barns tomonidan kiritilgan. Lekin unda internetdagi muloqot emas, insonlar va tashkilotlarning o‘zaro aloqasi nazarda tutilgan edi. Internet paydo bo‘lgach, ushbu tushuncha ancha kengaydi. 1835-yilda rus yozuvchisi va faylasufi Odoyevskiy “4338-yil” deb nomlangan asari ijtimoiy tarmoqlar rivoji haqidagi farazlarni ilgari suradi. Ularning ba’zilari bugungi kunda rost bo‘lib chiqqan bo‘lsa, ayrimlari fantastik xayolligicha qolib ketdi. Kompyuter yordamida ishlatiladigan ilk ijtimoiy tarmoq 1971-yilda vujudga keldi. U harbiylar tomonidan ma’lumot almashinish maqsadida foydalanildi. 1988-yilda Yarko Oykarinen internet-chat dasturini ilgari surdi. Asosan, ijtimoiy tarmoqning ommalashuvi 1995-yilga to‘g‘ri keladi. Biroz o‘tib amerikalik Rendi Konrads sinfdoshlar muloqotiga asoslangan ijtimoiy tarmoqni ishlab chiqdi. Facebook, VKontakte, Twitter va Instagram kabilar kirib kelgach, ijtimoiy tarmoqlarning tarafdorlari tubdan oshib ketdi hamda bugungi kunga kelib ya’ni 2024-yil holatida butun dunyo bo‘ylab ijtimoiy media foydalanuvchilari 5 milliardga yaqin sonni tashkil etadi va o‘rtacha bir kishi oyiga 6, 7 xil ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Iqtisodiy jihatdan esa ijtimoiy tarmoqlarda reklama xarajatlari 2024-yilda 219,8 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda.

Biz bilamizki, dunyo miqyosida smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining ko‘payishi turli xil raqamli jinoyatlar va ularning qurbonlari sonini ortishiga olib keladi. Ijtimoiy media - bu har qanday ijtimoiy platformadagi foydalanuvchi nomlari (username) orqali turli xil ma’lumot va axborotlarning tarqatilishi, e’lon qilinishi va almashinilishi mumkin bo‘lgan virtual olam hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati shundaki, ulardan foydalanishning asosiy maqsadi ikki tomonlama aloqa o‘rnatishdir (dialog). Yirik ijtimoiy media tarmoqlari yaqin kunlarda jiddiy xavfsizlik tahdidlariga uchraganligini bilamiz ya’ni xakerlar tomonidan e’lon qilingan foydalanuvchilarning turli xil parollari tahlil qilinganda, ko‘pchilik foydalanuvchilar juda oddiy parollardan foydalanishi ma’lum bo‘lgan.

Asosiy ijtimoiy media platformalari (serverlari) butunlay xorijiy davlatlarda bo‘lganligi sababli, bizning shaxsiy ma’lumotlarimiz xorijiy davlat fuqarolari va bundan kelib chiqib, ba’zan firibgarlar va xakerlarning qo‘liga tushishi hech gap

emas. Tabiiyki, biz smartfonimiz orqali ayrim ilovalardan foydalanish uchun smartfon kamerasiga, mikrofon va boshqa ma’lumotlarga kirish ruxsat beramiz va bu orqali shaxsiy tasvirlarni, mikrofon ovozlarini va barcha fayllarimizni noma’lum joyga yuklanishiga sharoit yaratib beramiz. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari kuniga o‘rtacha ikki soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflaydi. Bu har daqiqada yarim million tvit va Snapchat oqali surat almashish demakdir. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlar bizning hayotimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylanib ulgurdi. Biroq, biz hali ham “ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat vaqtimizni, balki aqliy, ijtimoiy va jismoniy salomatligimizni ham qurbon qilyapmizmi?”-degan savolga javob bera olmaymiz yoki e’tiborsiz qoldiramiz.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridagi aql bovar qilmaydigan o‘zgarishlar va yutuqlar ijtimoiy tarmoq va ijtimoiy mediada ham yangi imkoniyatlar, yangi muammolar va tahdidlarni keltirib chiqarayotganligini guvohiga aylanyapmiz. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar sonining jadal ortib borishi dunyo miqyosida insonlarga ushbu ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy tahdidlar qilinishi, ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi hamda boshqa turdagi zararlar yetkazilishi mumkinligini anglatadi. Facebook, Instagram, Twitter va hokazo ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining o‘sib boorish holatlari bir necha yil ichida deyarli ikki baravarga ko‘payganini ko‘rish mumkin. Quyidagi diagrammada 2017-2023-yillar oralig‘ida ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilarning o‘sish ko‘rsatkichlari hamda 2024-2025-yillar uchun taxminiy o‘sish ko‘rsatkichlari keltirilgan.



1-rasm. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining yillar kesimida o‘sishi (milliard).

Foydalanuvchilar uchun ushbu platformalarning bepul taqdim qilinishi ularning biznes modelidan kelib chiqadi ya’ni ko‘p foydalanuvchili ijtimoiy tarmoqlar reklama va biznes turlari uchun ancha qulay hisoblanadi. Bepul taqdim qilinayotgan ijtimoiy tarmoq platformalaridan foydalanish bilan bir qatorda foydalanuvchilar tarmoq kanallari orqali o‘zlarining ko‘plab shaxsiy ma’lumotlarini ushbu platformalarga (begona shaxslarga) taqdim qilishadi hamda bu ma’lumotlatni qo‘lga kiritgan yomon niyatli odamlar tomonidan suiste’mol qilinadi. Ushbu barcha

foydalanuvchilar yuqorida aytib o‘tilgan platformalarning egalariga ular reklama qilmoqchi bo‘lgan kompaniya va tashkilotlar uchun juda boy manbaa va maqsadli auditoriyani yaratib berish bilan foydali bo‘ladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda bu holatlar ko‘p tilga olinayotganligi va foydalanuchilarning aksariyat qismi ushbu holatlardan xabardor bo‘lishlariga qaramay, odamlar o‘z shaxsiy hayoti va shaxsiy ma’lumotlaridan voz kechgan holatda o‘zlari foydalanadigan ijtimoiy tarmoq platformalaridan uzoqlashmaslikni afzal ko‘rmoqda.

Umuman olganda. shaxsiy ma’lumotlarning egalari ya’ni ijtimoiy tarmoqlarning har bir foydalanuvchilari o‘zlarining ijtimoiy tarmoq sahifalarida qaysi ma’lumotlarni e’lon qilish mumkinligi yoki e’lon qilmaslikni hal qilish huquqiga ega hisoblanadi. Biz hozirgi kunda ushbu mavzu bo‘yicha joriy tadqiqotlarning natijalarini o‘rganib chiqdik. Ayni paytda milliardlab odamlar bir-biri bilan muloqot qilish, xabar almashish va chat qilish uchun minglab ijtimoiy tarmoq veb-sahifalariga murojaat qilishadi. Masalan, Twitter foydalanuvchilari orasida har kuni 170 milliondan ortiq xabar almashiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy media tarmoqlari yirik kompaniyalar va tashkilotlarga o‘zlarining bizneslarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni taqdim etadi. Ijtimoiy media saytlaridan foydalanish natijasida foydalanuvchilar o‘z akkauntlarini boshqarish, eski do‘stlari bilan aloqa qilish hamda yangi do‘stlarni orttirish imkoniyatlariga ega. Biroq, bu akkauntlar foydalanuvchilarning shaxsiy xususiyati sifatida qaraladigan ma’lumotlar ya’ni ism, yosh, jins hamda shaxsiy fotosuratlar va shaxsiy videolar kabi shaxsiy maxfiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlarda fotosuratlar, videolar va shaxsiy maxfiy ma’lumotlar almashilganda, foydalanuvchilar o‘zlarining ushbu ma’lumotlarini himoya qilish uchun xavfsizlik choralariga ega emasdirlar. Kiberjinoyatchilar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining ushbu shaxsiy va boshqa ma’lumotlaridan boshqa hisoblar (akkountlar) ni buzish yoki boshqa g‘arazli maqsadlarda foydalanadilar. Shunday qilib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar muhitida maxfiylik va xavfsizlik masalalari asosiy tashvishga aylanib ulgurgani hamda mavjud xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan dasturlar va turli xil antivirus dasturchilari tomonidan ko‘rilayotgan choralar foydalanuvchi hisoblarini turli xavfsizlik tahdidlaridan himoya qilish uchun yetarli darajada qoniqarli emasligi o‘z isbotini topmoqda.

Maxfiylikka keladigan bo‘lsak, u uch xil o‘lchovda ko‘rib chiqiladi: makon, shaxs va axborot maxfiyligi. Makon ya’ni joyning maxfiyligi shaxsni o‘rab turgan jismoniy makonni himoya qilishni nazarda tutsa, shaxsning shaxsiy daxlsizligi shaxsga nisbatan nohaq aralashuvdan himoya qilishni anglatadi. Axborot maxfiyligi esa shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va tarqatish kabi jarayonlarni nazorat qilishni anglatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishini hisobga olgan holda, shaxsiy daxlsizlik tushunchasi bo‘yicha muhokamalar asosan ma’lumotlarning maxfiyligi nuqtai nazaridan olib boriladi.

Turli tadqiqotlarga tayanadigan bo‘lsak, sotsiologik ta’sirlarga ko‘ra insoniyat avlodlari turli xil guruhlarga bo‘linadi. Muayyan bir vaqtlar orasida tug‘ilgan avlodlarning hayotiy ta’sirlar tufayli texnika va texnologiyaga bo‘lgan munosabatlari turlicha bo‘ladi. Ushbu avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar ham shaxsiy hayotdagi dunyoqarashlarga bog‘liq bo‘ladi va turli xil idrokni shakllantiradi. Chayji tomonidan

olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, 1995 va undan keyingi yillarda tug‘ilgan Z avlodi 1965-1980 yillarda tug‘ilgan X avlodi va 1981-1994 yillarda tug‘ilgan Y avlodiga qaraganda o‘zining shaxsiy hayotiga nisbatan boshqacha tushuncha va dunyoqarashga ega. Texnologiyalar davrida tug‘ilgan avlod sifatida ta’riflangan Z avlodi ijtimoiy mediani alohida voqelik maydoni sifatida ko‘rmaydi va o‘zining shaxsiy hayotini real hayotda bo‘lgani kabi ijtimoiy tarmoqlarda ham baham ko‘raveradi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan jinoyatlar qurbonlari sonining ortishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida undan foydalanish immunitetini shakllantirish natijasida ushbu jarayonlar orqali insoniyatga yetkazilishi mumkin bo‘lgan turli xil zararlarga yo‘liqmaslik va turli xil g‘araz niyatli odamlarning o‘ljasiga aylanmasligimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmood, Shah. 2014. Online Social Networks: Privacy Threats and Defenses. London: University College London.UK.
2. Khizar Hameed, Nafeesa Rehman. 2017. "Today's Social Network Sites: An Analysis of Emerging Security Risks an d their Counter Measures. "International Conference on Communication Technologies (ComTech). IEEE.
3. Ahmet Efe, Hamed Suliman, “How Privacy Is Threatened From Social Media Communication?” Anatolian Journal of Computer Sciences 2021.